

Besh vaqt namozning farzligi haqidagi bob

Manba: Islamnuri




Bintu Yunus
Bahor - 2020

Besh vaqt namozning farzligi haqidagi bob

4189 marta ko'rilgan

Namoz Islomning ikki shahodat kalimasidan keyingi eng katta rukni sanaladi. U juda mukammal va o'ta go'zal shakldagi ibodat turi bo'lib, Allohning zikri, tilovati Qur'on, Alloh qarshisida turish, ruku', sajda, duo, tasbeh, takbir kabi ibodatning juda ko'p turlarini o'z ichiga olgan. Namoz badaniy ibodatlarning eng asosiysi bo'lib, hech bir payg'ambarning shariati undan xoli bo'lmagan.



Alloh taolo so'nggi payg'ambari Muhammad sollallohu alayhi va sallamga uni boshqa shariatlaridan farqli ravishda, me'roj kechasi samovot olamida **farz** qildi, bu esa uning naqadar buyuk va Alloh huzurida naqadar e'tiborli ibodat ekaniga dalolat qiladi.

Uning **fazilati** va **fazi** aynligi haqida juda ko'p hadislar kelgan, uning farzligi Islomda hamma narsadan oldin bilinishi lozim bo'lgan eng zaruriy narsadir. Kim uning farzligini inkor qilsa, murtad bo'lib, Islomdan chiqadi. Bunday odamdan tavba qilishi talab qilinadi, agar tavba qilishdan bosh tortsa, o'ldiriladi, musulmonlar ijmo'si shungadir.

Biz namoz deb aytaydigan arab tilidagi الصلاة(as-solat) soʻzi lugʻatda **duo** ma'nosini anglatadi. Alloh taoloning quyidagi oyatida ham «as-solat» soʻzi duo ma'nosida kelgan:

«Ularning haqlariga duo qiling. Albatta, sizning duoningiz ular uchun orom-osoyishtalik boʻlur»

(Tavba: 103).

Shariat istilohida esa u takbir bilan boshlanib, salom berish bilan yakunlanadigan maxsus soʻz va amallar yigʻindisi ma'nosida tushuniladi. Allohga munojot va duoni oʻz ichiga olgani sababli solat – namoz deb nomlandi. U hijratdan avval Isro kechasi musulmon va mukallaf (ya'ni, oqil va boligʻ) inson uchun bir kecha-kunduzda besh vaqt qilib farz qilindi.

Alloh taolo aytadi:

«Albatta, namoz moʻminlarga (vaqti) tayinlangan farz boʻldi»

(Niso: 103).

Ya'ni, u Rasululloh sollallohu alayhi va sallam ham aytib, ham amaliy ravishda koʻrsatib bergan vaqtlarda farz boʻldi.

Alloh taolo aytadi:

«Holbuki ular faqat yagona Allohga, u zot uchun dinni xolis qilgan, Toʻgʻri yoʻldan ogʻmagan hollarida ibodat qilishga va namozni toʻkis ado etishga hamda zakotni (haqdorlarga) ato etishga buyurilgan edilar. Mana shu toʻgʻri yoʻldagi (millatning) dinidir»

(Bayyina: 5).

U Oʻzining Kitobida juda koʻp oʻrinlarda:

«Namozni toʻkis ado etinglar»,

deb buyurgan.

«(Ey Muhammad sollallohu alayhi va sallam), iymon keltirgan bandalarimga ayting, namozni toʻkis ado qilsinlar»

(Ibrohim: 31).

«Bas tunga kirish paytlaringizda ham, tongga kirish paytlaringizda ham, oqshomda ham, peshin paytiga kirishingizda ham Allohni poklangiz. (Zero) osmonlar va yerdagi bor hamdu-sano Unikidir (ya'ni koinotdagi barcha mavjudot Unga hamdu-sano aytur)»
(Rum: 17).

Qay bir kishiga **oqil va bolig'** bo'lgan holida namoz vaqti yetsa, unga o'sha namozni o'qish **farz** bo'ladi. Faqat hayz va nifos holiday ayolgina bundan mustasno bo'lib, ularga shu hollarida namoz farz bo'lmaydi va poklanganlaridan keyin ham qazosini o'qimaydilar, bu ijmo' qilingan ishdir. Kim uyqu yo behushlik kabi sabablar bilan aqlidan ajralsa, aqli qaytgan (ya'ni, uyg'ongan yo hushiga kelgan) paytda namozining qazosini o'qiydi. Alloh taolo aytadi:
«Meni yodga olish uchun namozni to'kis ado qiling!» (Toha: 14).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytganlar: **«Kim bir namozga uxlab qolsa yo esidan chiqib qolsa, esiga tushgach o'qib olsin»** (Buxoriy (597), Muslim (648) Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilganlar). Yosh bolaga garchi namoz vojib bo'lmasa-da, namozga e'tiborli bo'lib ulg'ayishi uchun valiysi (otasi yoki kafili) uni yetti yoshga kirganida namoz o'qishga buyurishi lozim. O'qigan namozining ajri unga ham, valiysiga ham bo'ladi. Chunki, Alloh taolo aytadi:

«Kim biron chiroyli amal qilsa, unga o'n barobar qilib (qaytarilur)»
(An'om: 160).

Bir ayol qo'lidagi go'dak bolasini ko'rsatib: «Yo Rasululloh, buning haji haj bo'ladimi?», deb so'rganida Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **«Ha, sen uchun ham savob bo'ladi»**, deb javob berganlar (Imom Muslim (1336) Ibn Abbos roziyallohu anhumodan rivoyati). Shunday ekan, valiysi unga tahorat va namozni o'rgatishi lozim.

O'n yoshga yetganidan keyin namozga beparvolik qiladigan bolani valiysi urishi kerak. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: **«Bolalaringizni yetti yoshga kirganlarida namozga buyuringlar, o'n yoshga kirganda namoz o'qimasalar uringlar va (shu yoshga yetgach) yotoq joylarini ajratib qo'yinglar»**, deganlar (Ahmad (2/180, N°6689), Abu Dovud (495) Amr ibn Shuaybdan, u otasidan, u bobosidan rivoyati).

Namozni vaqtdan kechiktirish mumkin emas. Alloh taolo aytadi:

«Albatta, namoz mo'minlarga (vaqti) tayinlangan farz bo'ldi»

(Niso: 103).

Ya'ni, namozni muayyan vaqtlarda o'qish farz bo'lib, o'sha vaqtlaridan **kechiktirish mumkin emas**. Faqat kimda-kim keyingi namoz bilan qo'shib, jam'i ta'xir qilishni istasa va u jamlab o'qiladigan namozlar jumlasidan bo'lsa, u odamning o'zi namozlarni jamlab o'qishga ruxsat berilgan kishilardan bo'lsa, unga joiz. Ammo, kechqurungi namozni kunduzgi vaqtgacha yoki kunduzgi namozni kechqurungacha yo ertasi tong otib ketgunicha kechiktirish na janobat, na najosat, na boshqa narsa tufayli bo'lsin, aslo durust bo'lmaydi. Balki, har bir namozni o'z vaqtida holi ko'targanicha o'qiydi.

Ba'zilar bemor bo'lib, shifoxonada karavotdan tushishga qodir bo'lmay yo najosat tekkan kiyimlarini almashtirishga qodir bo'lmay yotganida, yoki tayammum qilishga tuproq topolmay yo tayammum qildirib qo'yadigan odami bo'lmagan holda yotganida namozni vaqtdan kechiktirib yuborishadi va: «Keyinroq, uzr ketganidan keyin o'qib olaman», deyishadi. Bu juda katta xato va namozni zoe qilishdir, bilimsizlik va bilmaganini so'ramaslik kishini shu holatga tushirib qo'yadi. Bunday holatdagi kishi namozni o'z vaqtida, o'zining ahvoli ko'tarishiga qarab o'qishi lozim bo'ladi. Bunday uzrli hollarda garchi tayammumsiz va kiyimida najosat bilan o'qisa ham shu namozi unga kifoya qiladi.

Chunki, Alloh taolo:

«Kuchlaringiz yetganicha Allohdan taqvo qilinglar», deydi

(Tag'obun: 16).

Hatto, agar qiblaga yuzlanish imkoni bo'lmasa, qibladan boshqa tarafga qarab o'qisa ham namozi durust bo'laveradi.

Kimda-kim **yalqovlik** yo **beparvolik** bilan namozni tark qilsa, uning farzligi inkor qilmasa ham, ulamolarning bu to'g'rida aytgan so'zlarining kuchlirog'iga ko'ra, **kofir** bo'ladi. Zero, Imom Muslim (82) Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilgan:

«Kishi bilan kufr o'rtasida namozni tark qilish bordir»

hadisi va bundan boshqa ham ko'plab dalillar shunga dalolat qiladi.

Namoz o'qimayotgan odamning namoz o'qimasligini e'lon qilib, uyaltirish va shu yo'l bilan uni namozga kiritish lozim. Benamoz odam to **tavba** qilib, namozga qaytmagunicha u bilan **salom-alik qilmaslik, chaqirig'ini qabul qilmaslik** kerak. Chunki, namoz dinning ustunidir, u musulmon bilan kofirning o'rtasini ajratib turuvchi alomatdir. Banda har qancha amal qilmasin, agar namozini zoe qilsa, hech bir amali foyda bermaydi. **Alloh O'zi asrasin.**



TOYYIBAAH

